



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraxon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	

SUN'IY INTELEKT TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING ONA TILI FANINI O'QITISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (AQSH TAJRIBASI)

Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqola AQSh tajribasidan kelib chiqqan holda, sun'iy intellekt vositalari yordamida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasini taklif etadi. Tadqiqot AI platformalarining (masalan, Amira Learning) shaxsiylashtirilgan ta'lim, diagnostika va qayta aloqadagi roli, shuningdek, ularning o'qituvchi tayyorlashdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor ushbu xalqaro tajribani O'zbekistonning milliy-madaniy sharoitiga metodik jihatdan moslashtirish yo'llariga qaratilgan. Xulosa qilib, sun'iy intellekt asosida qurilgan integratsiyalashgan yondashuv o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasi va umumiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, o'qituvchi kompetentligi, ona tili o'qitish, boshlang'ich ta'lim, AQSh tajribasi, raqamli pedagogika, metodik rivojlantirish, adaptiv ta'lim.

Abstract: The article proposes a methodology for developing the competence of future primary school teachers in teaching the native language using artificial intelligence tools, based on the experience of the USA. The study analyzes the role of AI platforms (for example, Amira Learning) in personalized learning, diagnostics, and feedback, as well as their importance in teacher training. The main focus is on the methodological ways of adapting this international experience to the national and cultural context of Uzbekistan. In conclusion, an integrated approach built on artificial intelligence serves to enhance teachers' digital pedagogical competence and the overall quality of education.

Key words: Artificial intelligence, teacher competence, native language teaching, primary education, US experience, digital pedagogy, methodological development, adaptive learning.

Аннотация: Статья предлагает методику развития компетентности будущих учителей начальных классов в преподавании родного языка с использованием инструментов искусственного интеллекта на основе опыта США. Исследование анализирует роль платформ ИИ (например, Amira Learning) в персонализированном обучении, диагностике и обратной связи, а также их значение в подготовке учителей. Основное внимание уделяется методическим путям адаптации этого международного опыта к национально-культурным условиям Узбекистана. В заключение, интегрированный подход, построенный на основе искусственного интеллекта, способствует повышению цифровой педагогической компетентности учителей и общего качества образования.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, компетентность учителя, преподавание родного языка, начальное образование, опыт США, цифровая педагогика, методическое развитие, адаптивное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni sun'iy intellekt texnologiyalari (SI) bilan bog'liq innovatsion o'zgarishlar orqali tubdan yangilanmoqda. Ushbu jarayon ta'lim mazmuni, pedagogik metodika va o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini yangicha talablarga moslashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'limda raqamli transformatsiyani, shuningdek, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab, bu borada strategik choralarni amalga oshirish zaruratini qayd etgan ^[1].

Sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi o'rni, o'qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini shakllantirish borasidagi izlanishlar global miqyosda ahamiyat kasb etmoqda, xususan, AQShning ilg'or tajribasi



pedagogik tayyorgarlikning yangi modelini taqdim etadi. Bu holat pedagogik ta'limda texnologiyalardan foydalanish masalasini nazariy emas, balki amaliy kompetensiyalar nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Sun'iy intellekt pedagogik jarayonda diagnostika, baholash va adaptiv metodik yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa til o'rgatish jarayonida individual o'quv ehtiyojlarini aniqlash, individuallashtirilgan mashqlar tuzish hamda o'quvchilarning nutqiy va yozma ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotlar AI tizimlarining o'quv jarayonini shaxsga moslashtirish, real vaqt rejimida feedback taqdim etish va pedagogik qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash orqali til o'rganishni samarali qilishi mumkinligini ko'rsatadi [2].

Sun'iy intellekt, shuningdek, o'qituvchi kompetentligini chuqur diagnostika qilish, strategik rejalashtirish va individual yondashuv asosida dars rejasini shakllantirish kabi murakkab amaliyotlarda qo'llash imkoniyatini beradi. Mazkur imkoniyatlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitishda metodik moslashuvchanligini oshiradi. Ayniqsa, til kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishda SI asosidagi tahliliy ma'lumotlar muhim metodik manba vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

AQSh maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili (Language Arts, Literacy) fanini o'qitish sohasida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'qish, yozish va nutqni rivojlantirish asosiy ta'limiy vazifa sifatida belgilanganligi sababli, sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonlarni tahlil qilish, monitoring qilish va individuallashtirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. AQSh ta'lim amaliyotida sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning o'qish tezligi, matnni tushunish darajasi, talaffuzdagi xatolar hamda yozma nutqdagi kamchiliklarni aniqlash orqali savodxonlik ko'rsatkichlarini tizimli baholash imkonini bermocda.

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalar yordamida AQSh maktablarida ona tili fanini o'qitish jarayoni an'anaviy umumlashtirilgan yondashuvdan voz kechib, shaxsga yo'naltirilgan va differensial ta'lim modeliga o'tayotgani kuzatiladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning individual o'quv ehtiyojlarini aniqlash, ularning til ko'nikmalaridagi bo'shliqlarni belgilash va moslashtirilgan mashqlarni taklif etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada o'qituvchi har bir o'quvchining savodxonlik darajasini alohida kuzatish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. AQSh boshlang'ich maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalari, ayniqsa, o'qish savodxonligini rivojlantirishda faol qo'llanilmoqda.

Ovozli o'qishni tahlil qiluvchi tizimlar o'quvchilarning talaffuzi, intonatsiyasi va o'qish sur'atini baholab, real vaqt rejimida tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil o'qish malakalarini shakllantirishga, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga va o'qishdagi qiyinchiliklarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalari o'qishda qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilarni aniqlash va ularga qo'shimcha pedagogik yordam ko'rsatish imkonini yaratadi.

Yozma nutqni rivojlantirish jarayonida ham sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'siri sezilarli hisoblanadi. AQSh maktablarida yozma ishlarni avtomatik tahlil qilish orqali grammatik xatolar, gap tuzilishi, so'z boyligi va matn mantiqiyliqi aniqlanadi. Bu esa o'qituvchilarga yozma ishlarni baholashda ob'ektivlikni ta'minlash, o'quvchilarning yozish malakalarini tizimli ravishda rivojlantirish va individual tuzatish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida yozma nutqni shakllantirishda bunday yondashuv metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili faniga ta'siri nafaqat o'quvchilar bilan ishlash jarayonida, balki bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

AQSh pedagogik tayyorgarlik dasturlarida talabalar sun'iy intellekt asosida ishlovchi diagnostika va baholash vositalaridan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, ma'lumotlarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish va individual ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, AQSh ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari o'qituvchining metodik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. O'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida dars rejalari samaradorligini baholash, o'quvchilar natijalarini tahlil qilish va o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu holat pedagoglarning refleksiv faoliyatini kuchaytiradi va ularning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, AQSh maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili fanini o'qitish jarayoniga ta'siri tizimli, amaliy va natijaga yo'naltirilgan xususiyatga ega. Ushbu tajriba bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv O'zbekiston

ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilangan ta'limda raqamli transformatsiya va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish vazifalari bilan uzviy bog'liqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSh ta'lim tizimi sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishda strategik yondashuvni qo'llayotgan davlatlardan biridir. Masalan, MDPI jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, AQShdagi K-12 o'qituvchilarining aksariyati ChatGPT, Grammarly kabi AI vositalari haqida xabardor bo'lib, ularni dars jarayonida qo'llash imkoniyatlari bilan tanish ekanligi aniqlangan ^[3].

Ushbu vositalar o'qituvchilarga til o'qitish, matn tahlili, baholash hamda shaxsga mos feedback berish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, SI pedagogik yordamchi sifatida o'qituvchilarning metodik kompetentligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu holat AQShda pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining raqamli kompetensiyasi alohida kasbiy mezon sifatida qaralayotganini ko'rsatadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilar texnologiyalarni faqat yordamchi vosita sifatida emas, balki metodik qaror qabul qilishning muhim omili sifatida qabul qilmoqda. Til o'rgatish jarayoniga SI integratsiyasining yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'plab ilmiy manbalarda qayd etilgan. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'quv tizimlari o'quvchilarning nutq, talaffuz va matnni tushunish ko'rsatkichlari asosida individual mashqlarni taqdim etadi, bu esa til o'rgatish jarayonini sezilarli darajada jadallashtiradi ^[4].

Ushbu tizimlar orqali o'quvchilar o'z xatolarini tezkor aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda savodxonlikni shakllantirish jarayonida differensial ta'limni samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini tizimli ravishda kuzatish imkoniyati yaratiladi.

AQShda sun'iy intellekt asosida o'qishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tajribalar ham mavjud. Xususan, Houston hududidagi Aldine Independent School District maktablarida "Amira Learning" tizimi joriy etilgan bo'lib, u o'quvchilarning o'qish tezligi va talaffuzini tahlil qiladi hamda real vaqt rejimida feedback taqdim etadi ^{[6][5]}.

Amira Learning kabi texnologiyalar SI vositalarining til o'qitish jarayonidagi amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur tajriba SI texnologiyalarining nazariy darajada emas, balki real sinf sharoitida ham muvaffaqiyatli qo'llanilayotganini tasdiqlaydi. Ona tili fanini o'qitishda SI texnologiyalaridan metodik foydalanishning asosiy tamoyili nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Ushbu yondashuv doirasida pedagoglar o'quvchilarning til ko'nikmalarini baholash uchun adaptiv SI vositalaridan foydalanadi hamda mos individual mashqlarni ishlab chiqadi. Sun'iy intellekt yordamida tuzilgan diagnostik topshiriqlar o'qituvchilarning analitik va metodik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pedagogik faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik tayyorgarlikka joriy etish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilingan ^[1]. AQShdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar O'zbekiston pedagogik tayyorgarlik dasturlarini boyitish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Biroq ushbu tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki milliy ta'lim xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish zarur hisoblanadi. AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirishda qo'llash pedagogik ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish pedagogik kadrlarni raqamli davr talablari asosida tayyorlash imkonini beradi. Shu jihatdan, AQSh tajribasini tahlil qilish va metodik jihatdan umumlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

AQSh maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili fanini o'qitish jarayoniga joriy etilishi, avvalo, o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan diagnostik va tahliliy mexanizmlarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish tezligi, matnni tushunish darajasi, talaffuz hamda yozma nutqdagi xatolarni aniqlashda sun'iy intellektga asoslangan platformalardan foydalanish keng tarqalgan. Ushbu texnologiyalar o'qituvchiga har bir o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini differensial ravishda taqdim etish imkoniyati mavjud.

AQShda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasi alohida o'quv modullari sifatida kiritilgan bo'lib, pedagoglar diagnostika, adaptiv ta'lim hamda ma'lumotlar asosida pedagogik qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi. Bu esa ona tili fanini o'qitishda o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini tizimli baholash va differensial yondashuvni amalga oshirishga zamin yaratadi. Shu tarzda, pedagoglar sun'iy intellekt orqali o'quvchilarning zaif tomonlarini tezkor aniqlab, ularni mustahkamlash uchun individual mashqlar tuzish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston sharoitida AQSh tajribasidan moslashtiriladigan jihatlar mavjud. Jumladan, sun'iy intellekt vositalari yordamida o'quvchilarning savodxonlik darajasini baholash, o'qishdagi qiyinchiliklarni erta aniqlash va



ularga individual tavsiyalar ishlab chiqish O'zbekiston boshlang'ich ta'limi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda raqamli pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish AQSh tajribasining moslashuvchan jihatlaridan biridir.

O'zbekiston maktablarida bu imkoniyatlar dastlab pilot loyihalar va raqamli sinflar orqali bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkin. Biroq AQSh tajribasining barcha jihatlarini O'zbekiston sharoitida to'liq o'zini oqlamaydi. AQSh maktablarida keng qo'llaniladigan to'liq raqamlashtirilgan baholash tizimlari hamda yuqori texnik infrazuzilma O'zbekistonning barcha hududlaridagi maktablar uchun hozirgi vaqtda mavjud emas. Shu bilan birga, sinflarning kattaligi va o'quvchilarning turli ijtimoiy-madaniy sharoitlari individual yondashuvni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ona tili fanining milliy-madaniy mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Masalan, o'quvchilarning ona tilida she'riy va badiiy matnlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun sun'iy intellekt vositalarini faqat grammatik va fonetik jihatlarida emas, balki mantiqiy hamda kontekstual tahlil qobiliyatini shakllantirishga ham yo'naltirish lozim.

AQSh tajribasida sun'iy intellekt o'qituvchining metodik faoliyatini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qo'llaniladi, bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham maqbul hisoblanadi. O'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida dars rejalari samaradorligini baholash, o'quvchilarning natijalarini tahlil qilish va o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda, pedagoglarning refleksiv faoliyati kuchayadi, kasbiy rivojlanishi va metodik kompetensiyalari oshadi.

O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda milliy til, madaniyat va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallari va tahliliy vositalar milliy lingvistik xususiyatlarga moslashtirilishi lozim. Bu esa boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayonini nafaqat texnologik, balki metodik jihatdan ham boyitadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'qituvchilar o'quv jarayonini individual monitoring qilish va darslarni adaptiv ravishda moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'quvchilarning o'qish va yozish qobiliyatlarini tezkor rivojlantirish, ularning til kompetensiyalarini oshirish hamda darsdagi qatnashuvini faollashtirish imkonini beradi. Shu tarzda, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va pedagoglarning metodik yondashuvini kuchaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, AQSh tajribasi sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili fanini o'qitish jarayonini innovatsion metodik vositalar orqali takomillashtirishga imkon berishini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning savodxonligini oshirish, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish hamda o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini kuchaytirish AQSh tajribasining asosiy natijalari hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mazkur tajriba ilmiy-metodik jihatdan boy manba bo'lib, uni milliy ta'lim mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda mavjud pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda tanlab moslashtirish lozim.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik tayyorgarlik dasturlariga kiritish bo'lajak o'qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga, ona tili fanini o'qitish samaradorligini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tarzda, AQSh tajribasini tizimli tahlil qilish, milliy sharoitga moslashtirish va metodik jihatdan umumlashtirish O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida sun'iy intellekt asosida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni yaratadi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik sifatini oshirish va ta'lim jarayonining zamonaviy talablarga javob berishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun'iy intellektni rivojlantirish va ta'limni modernizatsiya qilish strategiyasi, 2024.
2. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Paris, 2019.
3. MDPI. AI Literacy: Elementary and Secondary Teachers' Use of AI Tools, Reported Confidence, and Professional Development Needs, 2025. (mdpi.com)
4. Sojida R., Begoyim B. Til o'rgatishning raqamli transformatsiyasi: sun'iy intellektning roli. The Lingua Spectrum, 12(2), 181–184, 2025.
5. Aldine ISD turns to AI reading tool for emergent bilingual students. Houston Chronicle, 2025.
6. AI Tutors Are Now Common in Early Reading Instruction. Education Week, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.